



LOGOPSIXOLOGIYA FANINING TAMOYILLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maxsus pedagogika(logopediya) yo'nalishi
talabasi Mirzahamdama Nozima*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233748>

Annotatsiya: Ushbu maqolada logopsixologiya fani haqida umumiy tushun-cha berilib, uning asosiy tamoyillari yoritilgan. Logopsixologiya nutq buzilishlarini psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan o'rganib, ularni tuzatish usullarini ishlab chiqadi. Maqolada individga yo'naltirilgan yondashuv, kompleks yondashuv, erta diagnostika va oldini olish, psixologik muhitning ahamiyati hamda amaliyot va nazariyaning uyg'unligi kabi asosiy tamoyillar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: determinizm, fleksiya, imperessiv nutq, kompleks, diagnostika, logopsixologiya.

Maxsus psixologiyaning bir qismi – logopsixologiyadir. Logopsixologiya fani maxsus psixologiyaning yangi tarmog'i hisoblanadi. Logopsixologiya – bu nutq buzilishlarini psixologik va pedagogik jihatdan o'rganadigan fan hisoblanadi. Ushbu soha nutqning rivojlanishi, uning buzilish sabablari va tuzatish usullarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Logopsixologiya logopediya, psixologiya va pedagogika fanlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning nutq faoliyatini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Logopsixologiya fanining bir qancha tamoyillari mavjud ular quyidagilardan iborat.

1. Determinizm tamoyili – bu tamoyil anomal rivojlanishni tushunishda

alohida o'rin tutadi. Determinizm tamoyili psixik holatda tinni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganishni nazarda tutadi. Determinizm narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi ta'limot. Determinizmni bir yoqlama tizim (sabab, oqibat) sifatida ko'rib chiqish noto'g'ri. Determinizm bunday aloqalar bilan cheklanmaydi. Real psixik hayotda keltirib chiqaruvchi sabalardan keyin oqibatlar darhol yuzaga kelmay, ma'lum bir vaqtdan keyin namoyon bo'ladi.

2. Rivojlanish tamoyili – ushbu prinspga ko'ra, nuqsonning yuzaga kelish

jarayonini (sababini) tahlil qilish bilan birga, aynan shu nuqsonni bolaning rivojlanishiga qanday ta'sir etishini o'rganish nazarda tutiladi. Ruhii holatning to'g'ri tavsifnomasi nuqsonning kelib chiqish sabalari, aynan hozirgi vaqtdagi holati va kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni inobatga olgan holatda tuziladi. Masalan, noaniq artikulyatsiya so'zni, tovushni tahlil-sintez qilish malakasini egallashda qiyinchiliklar, yozma nutqda aramatizmlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Rivojlanish tamoyiliga ko'ra, nuqsonni statistik jihatdan ta'riflashga emas, balki uning rivojlanish dinamikasini aniqlashga alohida urg'u beriladi.

3. Psixik rivojlanishning nutq bilan bog'liqligi tamoyili – nutqiy faoliyat

bola psixikasi, turli ruhiy jarayonlar (sensor, intellektual, hissiy idora sohasi) bilan bog'liq holda shakllanadi. Bolada kechayotgan ruhiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini individual o'rganish natijasida bola nutqning nuqsonli rivojlanishini aniqlash mumkin.

4. Diagnostika va korreksiyaning birligi tamoyili – korreksion ishlarning

vazifalari bola rivojlanishining to'liq psixologik diagnostikasiga asoslanganligida-gina to'g'ri belgilanishi mumkin. Psixologik diagnostika va korreksiya bir-birini to'ldiradigan jarayonlardir. Shuning uchun bolaga psixologik korreksiya kerakmi yoki yo'q degan savolga javob berishdan oldin, bolaning psixologik rivojlanish xususiyatlarini, muayyan yangi psixologik hosilalarning shakllanganlik darajasini, malakalar, bilimlar, ko'nikmalar, shaxsiy va shaxslararo aloqalarning rivojlangan-

lik darajasining bola yoshi bosqichlariga muvofiqligini aniqlab olish zarur.



Xulosa. Logopsixologiya nutq bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ushbu fan tamoyillariga rioya qilish orqali nutqiy muammolarni samrali bartaraf etish va insonlarning ijtimoiy hayotga integratsiyasini ta‘minlash mumkin. Erta diagnostika, individual yondashuv va kompleks terapiya orqali logopsixologlar nutq rivojlanishidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi. Logopsixologiya sohasi doimiy ravishda rivojlanib, zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion yondashuvlar asosida yangi usullar ishlab chiqilmoqda. Bu esa kelajakda nutq terapiyasini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. L.R.Mo‘minova “Logopediya”. – T.,2006
2. L.R.Mo‘minova, M.Y.Ayupova. Logopediya. -T.,1993
3. L.R.Mo‘minova. Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. – T., 2006
4. Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikas, 2005.